

amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, moliya bozorini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari va istiqbollari belgilashda muhim rol o'ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarda rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar. PF-60-son.*

*Veličković P., Cucurull G., Casanova A., Romero A., Liò P., Bengio Y. Graph Attention Networks // International Conference on Learning Representations (ICLR). 2018.*

*Demographic Forecasting / Ed. by Keilman N. // Springer Series on Demographic Methods and Population Analysis. 2020. Vol. 42.*

*O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Demografik ko'rsatkichlar. 2024. www.stat.uz*

*Тошматов Ш.Қ., Бобоев А.А. Sun'iy intellekt texnologiyalari va ularning moliya sektorida qo'llanilishi // Raqamli iqtisodiyot. 2024. №1. 56-68 b.*

*Умаров Б.Ж. Urbanizatsiya jarayonlari va shahar infratuzilmasining rivojlanishi // Shahar va qurilish. 2023. №2. 23-35 b.*

*Юсупов Р.М., Алимова Д.С. Pensiya tizimi islohotlari: demografik omillar va moliyaviy barqarorlik // Iqtisodiy tahlil. 2023. №6. 78-91 b.*

## **ISLOM IQTISODIYOTIDAGI FIQHIY QOIDALAR VA BOSHQA IQTISODIY MAKTABLAR: KONSEPTUAL TAQQOSLASH**

**Ruziyeva Dilorom Melikulovna**

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi  
"Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar" fakulteti talabasi*

**Annotatsiya.** *Mazkur tezisdagi islom iqtisodiyotidagi iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonida fiqhiy qoidalarning tutgan o'rni va ta'siri, xususan besh asosiy fiqhiy qoida misolida, ularning amaliy roli tadqiq etilib, shu bilan birga g'arb iqtisodiy maktablari qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisod maktablari g'oyalari asosidagi iqtisodiy modellarning ustun va muammoli jihatlari aniqlanib, ularni fiqhiy qoidalar asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Islom iqtisodiyoti, iqtisodiy qarorlar, fiqhiy qoidalar, besh qoida, qiyosiy tahlil, islomiy moliya, fiqh, qoida, ribo, foyda, zarar.*

Islom dini bozor qonuniyatlari va bozor iqtisodiyotini inkor qilmaydi. Hatto faqat foyda ko'rish ishtiyoqi ham ma'lum miqdorgacha maqbul hisoblanadi. Shu qatorda, xususiyl mulkchilikka ham to'liq ravishda e'tiroz bildirilmaydi. Ammo kapitalistik iqtisodiyot va Islom iqtisodiyoti o'rtasidagi asosiy farq dunyoviy kapitalizimning iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foyda ko'rishga bo'lgan

ishtiyoq yoki xususiy mulkdorlikka cheklanmagan miqdorda erkinlik berishida namoyon bo'ladi. Bunday erkinlik hech qanday ilohiy ko'rsatmalar bilan tartibga solinmagan. Cheklovlar mavjud bo'lganda ham faqatgina inson tarafidan o'rnatilgan, demokratik qonunchilik tomonidan doimiy ravishda o'zgarishlarga mahkum hisoblanadi.<sup>245</sup>

Usmoniylar davlati (1281-1924) davrida 1869-1876 yillar davomida ulamolar hay'ati tomonidan yaratilgan qonunlar majmuasi – "Majallatul ahkomil adliya"da hanafiylikdagi asosiy 99 ta fiqhiy qoida qayd etilgan. XIX asr oxirida Shom muftiysi Mahmud ibn Hamza al-Hamzoviy rahimahulloh o'zlarining "al-Faroid al-bahiyya fi-l-qavoid va-l-favoid al-fiqhiyya" («Fiqhiy foydalar va qoidalar borasida qimmatbaho durdonalar») nomli asarlarida 251 ta fiqhiy qoidani to'plashga muvaffaq bo'lganlar. U fiqhiy mavzularga bo'lib, tartib berilgan. Bu hanafiylik mazhabidagi fiqhiy qoidalarni eng ko'p to'plagan muhim manba bo'lib, Damashqda 1986 yilda nashr etilgan.<sup>246</sup> Fiqh ilmining beshta eng asosiy qoidalari mavjud bo'lib, fiqh ulamolarining fikriga ko'ra, qolgan barcha fiqhiy qoidalar shu beshta asosiy qoidadan kelib chiqadigan xulosa yoki sharhlar hisoblanib, turli xil fiqhiy masalalarni qamrab oladi.<sup>247</sup>

Iqtisodiyot nazariyasi fani shakllanishi jarayonida bir qancha g'oyaviy oqimlar, maktablar vujudga kelgan. Ular jamiyat boyligining manbai nima, u qayerda va qanday qilib ko'payadi, degan savollarga javob topishga urinishgan. Masalan klassik, neoklassik, marksistik, keynschilik shular jumlasidandir.<sup>248</sup>

Islom moliyasi axloqiy-ijtimoiy moliya hisoblanadi. Chunki kapitalistik davlatlar madaniyati individualistik madaniyat hisoblanib, shaxs xohishlari hamma narsadan ustun turadi. Islom moliyasi diqqat markazida esa jamoa turadi. Islom moliyasi ijtimoiy – axloqiy moliya deyilishining yana bir sabablaridan biri shuki – unda tijoriy va notijoriy moliyalar bor.

Islom va moliyaning bog'lanishi. Islom huquqida qonun qoidalarni o'rganuvchi yo'nalish – Fiqh deb ataladi. Moliyaviy masalalarga javob beruvchi fiqh esa Fiqh al – muamalat deb ataladi. Fiqh al – muamalat – bu jamiyatda qanday muomalalar bo'lsa, o'sha muomalalarni hal qiladigan qonun-qoidalar yig'indisidir. Uning bir qismi moliyaviy muamalat bo'lib, u insonlar o'rtasidagi moliyaviy aloqalarni, bir-birlari bilan savdo-sotiq, pul bilan bog'liq oldi-berdi muomalalarini qamrab oladi.<sup>249</sup>

Islom fiqhida fiqhiy qoidalar haqida umumiy tushuncha:

“Fiqh” so'zining ma'nosi (lug'atda): daqiq fahm, bir narsani nozik joylarigacha tushunish, anglab yetish.

<sup>245</sup> Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy: "Islom moliyasiga kirish"(12-sahifa), Azon kitoblari nashriyoti, 2023

<sup>246</sup> Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari [Matn] (Fiqh fanidan o'quv qo'llanma) / Mualliflar: Aminov H., Primov S.; mas'ul muharrir: Shayx Abdulaziz Mansur. - Toshkent: "Movarounnahr", 2017. 261-b.

<sup>247</sup> Fiqhiy qoidalar nazmiga sharh. Sa'diy. Arab tilida. PDF <https://www.dropbox.com/s/0xsb6htlzh1gh6y/ar-Explanation-of-the-Fundamentals-of-Fiqh-Poem.pdf?dl=0>

<sup>248</sup> Sodiqova N.T. (2025) — *Iqtisodiyot fanining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni* (ilmiy maqola). [https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/72659?utm\\_source=chatgpt.com](https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/72659?utm_source=chatgpt.com)

<sup>249</sup> Axmadjonov, O. (2021). *Islomiy moliya va O'zbekiston moliya tizimida uni qo'llash*. Oriens, 26, 218–228. <https://www.oriens.uz/media/journalarticles/26-Axmadjonov-Oybek-218-228.pdf>

“Fiqh” so‘zining ma‘nosi (istilohda): Qur‘oni karim oyatlari va hadislardan shar‘iy hukm chiqarish. Kitob, Sunnat va ikkalasidan chiqarib olingan hukm va masalalar yig‘indisi.<sup>250</sup>

Qoida tushunchasi: qoida- juz‘iy hukumlarni o‘z ichiga olgan umumiy tizimdir. Masalan: “Buyruq- vojib uchundir, qaytariq esa harom uchundir” degan qoida kabi.<sup>251</sup>

Fiqhiy qoidalar: fiqh ilmining umumiy qoidalari to‘plami bo‘lib, turli hollarda umumiy qonun-qoidalarga bo‘ysungan holda qo‘llaniladi. Bu fiqhiy qoidalar ma‘lum bir olim tomonidan birdaniga yozilmagan, balki faqihlar (fiqh ilmi olimlari) tomonidan fiqh ilmining shakillantirish jarayonida asta-sekinlik bilan rivojlanib kelgan. Islom moliyasi, islom bank ishi va islom iqtisodiyotining barcha sohalarida yuzaga kelayotgan masalalarning yechimi aksariyat hollarda «القواعد الفقهية» (qava‘id al-fiqhiyya) yordamida tartibga solinmoqda, («الفقهية القواعد» (qava‘id al-fiqhiyya) — bu Islom fiqhidagi umumiy tamoyillar.

“Fiqhiy qoidalar (القواعد الفقهية / qawā‘id al-fiqhiyya) manbalari” — Qur‘on (القرآن الكريم); Hadislar (الشريف الحديث); Ijmo‘ (الإجماع); Qiyos (القياس); Istihsan (الاستحسان); Maslahat al-mursala (المرسلة المصلحة); Urf (العرف).

Fiqh ilmining beshta eng asosiy qoidalari quyidagilardir: 1) Amallar maqsadlarga / niyatlarga qarab baholanadi. 2) Aniqlikni shubha - gumon ketkazmaydi (ya‘niy aniq narsa shubha - gumon sababli tark qilinmaydi). 3) Qiyinchilik imkoniyatlar keltirib chiqaradi. 4) Zarar bartaraf qilinishi kerak. 5) Urf - hukm uchun asos hisoblanadi.<sup>252</sup>

Insonning barcha amallarida niyat va maqsadning o‘rni muhimdir. Ishlarning maqsadlarga bog‘liqlik xususiyatini va klassik maktabning asosiy g‘oyasidan birini quyidagi jadvalda konseptual taqqoslaymiz.

<b>№1 Fiqhiy qoida: Amallar maqsadlarga / niyatlarga qarab baholanadi (الأمور بمقاصدها)</b>	
Mazmuni (qisqacha ilmiy talqin)	Mazkur qoidaning umumiy ma‘nosi: Mukallaflarning aytadigan so‘zlari va qiladigan ish-harakatlari ularning niyatlari va maqsadlariga bog‘liqdir. <sup>253</sup>
Iqtisodiy maktab talqini	Klassik maktab (A.Smith — “ <i>ko‘rinmas qo‘l</i> ”)ning markaziy g‘oyasi: “Har bir kishi o‘z kapitalini ko‘proq qiymat keltiradigan tarzda ishlatishga harakat qiladi. Odatda u jamiyat foydasiga ta‘sir ko‘rsatishini nazarda tutmaydi va unga ancha ta‘sir ko‘rsatayotganini sezmaydi. U faqat o‘z manfaatini nazarda tutadi, faqat o‘z foydasini ko‘zlaydi. Shunday bo‘lsada, bunday sharoitda ko‘rinmas qo‘l uni maqsad sari yo‘naltiradi, garchi bunday maqsad uning rejasiga kirmagan bo‘lsa ham”. <sup>254</sup>
Islom iqtisodiyotining yondashuvi	Islom iqtisodiyotida barcha ehtiyojlar <b>halol va Alloh roziligiga muvofiq</b> qondirilishi kerak. Narxlar bozor kuchlari — talab va taklif orqali shakllanadi va har bir tranzaksiya ixtiyoriy va rozilik bilan amalga

<sup>250</sup> Muslim.uz. (n.d.). *Fiqh nima?* Olingan manzil: <https://muslim.uz/uz/e/post/38107-fiqh-nima>

<sup>251</sup> Usulul fiqh: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. 6-bet

<sup>252</sup> admin. (2019, 9 dekabr). *Fiqhiy qoidalar*. Islom moliyasi. <https://islommoliyasi.uz/uz/fiqhiy-qoidalar/>

<sup>253</sup> Fitrat.uz, 2018, *Ishlar maqsadlarga bog‘liqdir*, <https://fitrat.uz/archives/4583>

<sup>254</sup> Islomov A., Egamov E. *Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi*. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2003, 76-b.

	oshirilishi lozim. Shu orqali Islom iqtisodiyoti dunyo va oxiratda farovonlikni ta'minlashni maqsad qiladi. <sup>255</sup>
Umumiy va farqli jihatlari.	Har ikkisi shaxsiy faoliyat va bozor mexanizmini rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga e'tibor beradi. Farqi shundaki, Smitning nazariyasida erkinlik asosiy, lekin monopoliyalar, g'arar, maysir va ribo kabi zararli holatlar nazorat qilinmaydi; Islom iqtisodiyoti esa shaxsiy manfaatni axloqiy va diniy cheklovlar bilan muvozanatlashtiradi, bozorni adolatli va halol qiladi.

Fiqhiy qoidalar inson faoliyatini, jumladan, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda adolat, halollik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga tayangan holda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ular iqtisodiy jarayonlarni faqat moddiy manfaat bilan emas, balki ma'naviy va axloqiy mezonlar orqali boshqarishni ta'minlaydi. G'arb iqtisodiy maktablari esa, asosan, foyda maksimalizatsiyasi, erkin bozor va raqobat tamoyillariga tayanadi. Shu jihatdan, fiqhiy qoidalar iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni saqlashda muhim muvozanat yaratadi.

Taklif tariqasida, zamonaviy iqtisodiy siyosatda fiqhiy qoidalarning amaliy tatbiqini kengaytirish, ayniqsa, Islom moliya institutlari faoliyatida ularni standartlashtirish zarur. Shuningdek, iqtisodiy ta'lim tizimiga fiqhiy yondashuvlarni integratsiya qilish, yosh iqtisodchilarda axloqiy javobgarlikni shakllantirish lozim. Fiqhiy qoidalarga asoslangan iqtisodiy model — nafaqat diniy qadriyatlarni, balki barqaror, adolatli va ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy. *Islom moliyasiga kirish. Azon kitoblari*, 2023, 12-b.
2. Aminov H., Primov S. *Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari [Matn]*. Toshkent: Movarounnahr, 2017, 261-b.
3. Sa'diy. *Fiqhiy qoidalar nazmiga sharh [PDF]*. Arab tilida. [https://www.dropbox.com/s/0xsb6htlzh1gh6y/ar Explanation of the Fundamentals of Fiqh Poem.pdf?dl=0](https://www.dropbox.com/s/0xsb6htlzh1gh6y/ar%20Explanation%20of%20the%20Fundamentals%20of%20Fiqh%20Poem.pdf?dl=0)
4. Sodiqova N.T. (2025). *Iqtisodiyot fanining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni*. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/72659>
5. Axmadjonov O. (2021). *Islomiy moliya va O'zbekiston moliya tizimida uni qo'llash*. *Oriens*, 26, 218–228. [https://www.oriens.uz/media/journalarticles/26\\_Axmadjonov Oybek 218-228.pdf](https://www.oriens.uz/media/journalarticles/26_Axmadjonov_Oybek_218-228.pdf)
6. *Muslim.uz. Fiqh nima?* <https://muslim.uz/uz/e/post/38107-fiqh-nima>
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Usulul fiqh*, 6-b.
8. admin. (2019, 9 dekabr). *Fiqhiy qoidalar*. <https://islommoliyasi.uz/uz/fiqhiy-qoidalar/>

<sup>255</sup> Uzlan va boshq., 2022, *Comparative Study of Market Mechanism...*, DOI: [maqola sahifasi](#)

9. *Fitrat.uz.* (2018). *Ishlar maqsadlarga bog'liqdir.*  
<https://fitrat.uz/archives/4583>
10. *Islomov A., Egamov E. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi.* Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi, 2003, 76-b.
11. *Uzlan va boshq. (2022). Comparative Study of Market Mechanism.* DOI:  
<https://doi.org/10.33650/ijed.v1i2.5827>

## **ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА МОЛИЯВИЙ ЖИНОЯТЛАР ХАВФИНИ КАМАЙТИРИШДА КОМПЛАЕНС ФАОЛИЯТИНИНГ РОЛИ**

**Зокиров Исмоилжон Иброхимович**

*“Бизнесни ривожлантириш банки” АТБ етакчи менежери  
Мустақил тадқиқотчи*

**Аннотация.** *Мазкур тезисда тижорат банкларида молиявий жиноятлар хавфини камайтиришда комплаенс фаолиятининг ўрни ва аҳамияти илмий жиҳатдан таҳлил қилинган. Рақамли молиявий хизматлар кенгайиши шароитида пул ювиш, терроризмни молиялаштириш ва фирибгарлик билан боғлиқ рискларни бошқариш механизмлари ўрганилган. Рискка асосланган ёндашув, мижозларни сегментация қилиш ва автоматлаштирилган мониторинг тизимларининг самарадорлиги асослаб берилган. Комплаенс тизимини такомиллаштириш бўйича амалий таклифлар ишлаб чиқилган.*

**Калит сўзлар:** *комплаенс, молиявий жиноятлар, риск, пул ювиш, терроризмни молиялаштириш, ички назорат, банк назорати, рискка асосланган ёндашув.*

Жаҳон молия тизимида рақамли трансформация жараёнларининг жадаллашуви тижорат банклари фаолиятида янги имкониятлар билан бирга янги хавф-хатарларни ҳам келтириб чиқармоқда. Айниқса, онлайн-тўловлар, масофавий идентификация ва электрон пул ўтказмалари ҳажмининг ўсиши молиявий жиноятлар хавфини оширмоқда.

Бундай шароитда банкларда комплаенс назоратини кучайтириш, унинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш ҳамда халқаро стандартларга мувофиқлаштириш муҳим аҳамият касб этади. Комплаенс фаолияти банкнинг барқарорлиги ва ишончилигини таъминловчи муҳим институционал омил сифатида намоён бўлади.

Молиявий жиноятлар – бу молиявий ресурслардан ноқонуний фойдаланиш, уларни яшириш ёки қонунийлаштириш билан боғлиқ ҳаракатлар мажмуасидир. Уларга пул ювиш, терроризмни молиялаштириш, коррупция, ички фирибгарлик ва кибержиноятлар киради.

Риск тушунчаси эҳтимолий йўқотишлар ва салбий оқибатлар эҳтимоли билан боғлиқ. Банк амалиётида молиявий жиноятлар хавфи операцион,